

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.A.Yuldashev</b> Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari .....	108
<b>M.M.Teshaboyev</b> Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik .....	115

---

SIYOSAT

<b>H.M.Rasulov</b> Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida .....	120
<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
<b>B.M.Jo'raquziev</b> Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida .....	129
<b>D.A.Mamajonova</b> Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
<b>I.A.Raximov</b> "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni" .....	138

---

TARIH

<b>E.G.Radjabov</b> Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini .....	142
<b>B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov</b> Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid .....	148
<b>X.S.Jumanazarov</b> Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
<b>S.R.Tolibova</b> O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida) .....	159
<b>X.X.Azimov</b> Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida) .....	167
<b>K.S.Karimov</b> Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
<b>N.Xudoyberdiyeva</b> Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi .....	176
<b>F.U.Temirov</b> Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadridin Ayniyning publisistik faoliyati .....	179
<b>M.H.Isamiddinov</b> O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.G.Sabirdinov</b> Omon Muxtor romanlariga chizgilar .....	188
<b>M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov</b> Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar .....	191
<b>P.M.Axmadjonov</b> Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir .....	195
<b>G.H.Axmedova</b> Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm .....	200
<b>G.V.Abdullayeva</b> Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi .....	204

## OMON MUXTOR ROMANLARIGA CHIZGILAR

## ЧЕРТЕЖИ ПО РОМАНАМ АМОНА МУХТОРА

## DRAWINGS AFTER THE NOVELS OF AMON MUKHTOR

<sup>1</sup>Sabirdinov Akbar Gofurovich<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, professor, filologiya fanlari doktori**Annotatsiya**

Maqolada Omon Muxtor ijodining XX-XXI asr o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Yozuvchi romanlarning mavzu va obrazlari, badiiyati, ta'sir manbalari tahlil etilgan. Uning romanchilik rivojida o'rni yoritib berilgan.

**Аннотация**

В статье описывается роль произведений Амона Мухтара в развитии узбекской прозы XX-XXI веков. Анализируются темы и персонажи романов автора, искусство, источники влияния. Объясняется его роль в развитии романа.

**Abstract**

The article describes the role of the works of Amon Mukhtar in the development of Uzbek prose of the 20th-21st centuries. The themes and characters of the author's novels, art, and sources of influence are analyzed. His role in the development of the novel is explained.

**Kalit so'zlar:** roman, mahorat, uslub, ta'sir manbalari, badiiyat, davr muammolari, o'zbek adabiyoti, janr xususiyatlari, adabiy muhit.

**Ключевые слова:** роман, мастерство, стиль, источники влияния, художественность, проблемы времени, узбекская литература, жанровые особенности, литературная среда.

**Key words:** novel, skill, style, sources of influence, artistry, problems of the time, Uzbek literature, genre features, literary environment.

**KIRISH**

O'zbek romanining salkam bir asrlik taraqqiyot yo'li ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va adabiy muhitdagi keskin o'zgarishlar bilan bog'liqlikda kechgani sir emas. XX asr milliy romanchiligimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, avvalo uch buyuk iste'dod sohiblari – Qodiriy, Cho'lpon va Oybek asarlarining ushbu janr imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi muhim o'rnini eslab o'tishimiz zarur.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'tgan asr boshlarida Hamza "Yangi saodat" asarini milliy roman deb atagan, bu boradagi ilk izlanishlarni boshlab bergan edi. Qodiriy "O'tgan kunlar"i bilan dunyodagi "oltinchi romanchilik maktabi"ga (Bertels iborasi – S.A.) asos soldi. Yozuvchi romanida mumtoz adabiyotimiz va o'zbek xalq og'zaki ijodiga xos ifoda uslubidan, romantik va realistik tasvirning mushtarak usullaridan mohirona foydalandi. Tilimizning turli qatlamlariga mansub so'z va iboralarni, ifoda va vositalarni asariga olib kirib, ularga qaytadan hayot bag'ishladi. O'zbek prozasida romanning janr sifatidagi o'rin egallashida beqiyos xizmat qildi.

Cho'lpon "Kecha va kunduz" romani bilan mustamlaka ostidagi xalqning dardlarini, mashaqqatli turmush tarzini hayotiy, real ifodalashga, ijtimoiy hodisalarning shaxsiylashtirgan holdagi tasvirini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay Oybek "Qutlug' qon" asarida bosh qahramon yaratishdagi o'ziga xos konsepsiyasini – xarakter va qiyofalar yaratishdagi haqqoniylikni ta'minlash, uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish orqali ko'rsatib berdi.

Garchi keyingi yillarda ba'zi munaqqidlar "Qutlug' qon" romanining yaratilish tarixidan, ba'zi qahramonlarning asarga kiritilish tafsilotlaridan bexabar holda, beryoqlama tanqidiy fikrlar bildirgan bo'lsalar-da, ushbu asar obrazlarning hayotiyligi va jonliligi, ijtimoiy-tarixiy sharoitni keng va haqqoniy aks ettirganligi bilan o'zbek adabiyotining durdonasi hisoblanadi. Xullas, yuqorida tilga olingan uch ijodkor o'ziga xos betakror uslublari, tasvir usullari bilan ushbu janr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Mustaqillik yillarida Folkner, Joys, Kafka, Kamyu, Markes kabi jahon adabiyoti namoyandalari asarlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi va bu jarayondagi ijodiy ta'sir ma'lum darajada romanchilikning ham mazmun, ham shakl jihatlariga ta'sir ko'rsatdi, bu boradagi izlanishlarning yanada kuchayishiga olib keldi. Bugungi o'zbek romanchiligidagi yangi yo'nalish va oqimlarning metod va usullarning yuz ko'rsatayotganligini Sharq va G'arb adabiyoti an'alarining sintezlashgan ifodasi, desak to'g'riroq bo'ladi. Bu holni yozuvchi Omon Muxtor romanlari tahlili misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Yozuvchining har bir asari ijodiy izlanishlar maydoni vazifasini bajargan, desak xato bo'lmaydi. Uning "Yillar shamoli", "Aflotun", "Ffu", "Egilgan bosh", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba" romanlarining har biri o'ziga xos shakl va mazmunga, syujet va kompozitsiyaga, obrazlar tizimi va g'oyaviy yo'nalishiga ega[1, 432]. Agar an'anaviy romanlarda ko'pincha xronikal va retrospektiv syujet qo'llaniladigan bo'lsa, bu asarlarda assotsiativ va konsentrik syujetga xos jihatlarni ko'ramiz. Qahramonlar ruhiy dunyosining nozik tasviri, ong qatlamlaridagi sezgilar, inson tafakkurining to'la o'rganilmagan sezimlari, ichki olam murakkabliklari talqini ushbu asarlar asosini tashkil etadi.

Mazkur romanlardagi obrazlar tizimi M.Bulgakov, A.Kamyu, G.Markes, Ch.Aytmatov asarlaridan, shuningdek, o'zbek xalq qissalari hamda mumtoz dostonlarimiz an'alaridan ta'sirlanishning mahsuli sifatida yuz ko'rsatadi. Yozuvchi ta'sir manbalariga ko'r-ko'rona taqlid qilish yo'lidan bormaydi. Ularga yangicha yondoshib, betakror qiyofa va obrazlar, milliy xarakterlar yaratishga erishadi. Inson umri va uning o'tkinchiligi, halollik va hiyonat, muhabbat va nafrat, boyluk va kambag'allik, baxt va baxtsizlik, o'tmish va bugun, hayot va o'lim haqidagi tushuncha hamda mavzular ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari bilan goh falsafiy, goh xalqona ifodalarga, goh hayotiy manzaralarda yoritiladi. Xayol bilan hayot, fantastika bilan reallik ba'zan qorishgan holda o'ziga xos mushtaraklik kasb etadi. Masalan, Abdulla Hakim ruhining o'lgandan so'ng o'z jasadini yuqoridan kuzatib turishi, to'qqiz qavatli "Tarix va Madaniyat" tashkilotining bir kechada g'oyib bo'lib qolishi ("Ming bir qiyofa"), Siroj muallim jismining uch qiyofaga ajralib uch yoqqa ketishi ("Ko'zgu oldidagi odam"), cheksiz sahrodagi quduq ichidan Usmonning darveshlar to'dasiga duch kelishi ("Aflotun"), Mirzo G'olibning dashtdagi xarobada Bayron, Mashrab, Lutfiy jasadlarini ko'rish ("Tepalikdagi xaroba") hodisalari o'tmish bilan bugun o'rtasidagi chegaraning yo'qligi, bugun ham ertaga o'tmishga aylanib qolishi muqarrarligi haqidagi falsafiy fikr ifodasiga xizmat qilgan. Shuningdek, voqealar rivoji va syujet mantiqiyiligi, uydirmaning hayotiy, falsafiy asosda dalilanishi kitobxonni ishontiradi va bu holat o'zini to'la oqlaydi.

O.Muxtor romanlaridan "o'q tomir" bo'lib o'tgan bir mavzu bor. Bu –Buxoro, uning tarixi, osori-atiqalari. Yozuvchi Buxoro kishilari qiyofasini, tarixiy obidalarini, muammolarini ayri-ayri muhabbat bilan tasvirlaydi. "Aflotun" romanidagi Rauf va uning otasi Abdurahimboy taqdirleri, "Yillar shamoli"dagi Kamol, Oliya va Zumrad hayoti kechgan yurt tasviri... Yoki tarixchi olim Mirzo G'olibning yurtning ertangi taqdiri bilan bog'liq kechinmalari, ayrim mansabdorlarning vaqtinchalik obro' deb tarixiy obidalariga nopisand munosabatlari va bu bilan ularning vayron bo'lishiga qo'shgan "hissalari"... Bularning barchasi kishini o'ylashga, fikrlashga chorlaydi.

Bu romanlaridagi obraz va personajlarni yozuvchi atayin "oq" va "qora"ga, "salbiy" va "ijobiy"ga ajratish yo'lidan bormaydi, hatto ular qilmishlariga ochiq munosabat bildirishdan ham tiyilib turadi. An'anaviy romanlardagi "ideal" qahramon O.Muxtor asarlarida hayotiy qahramon ko'rinishida namoyon bo'ladi. Toshtemirning kazzobliklaridan nafratlanamiz, shuning barobarida, uning keyingi taqdiridan achinamiz. Burhon Sharifning Abdulla Hakim she'rlariga munosabatidan ko'nglimiz xira tortsa, yaxshi ishlaridan ruhimiz ko'tariladi.

O.Muxtor romanlarida o'tmish va bugungi kun tasvirlari uyg'un bo'lib, yagona g'oyaning ochilishiga xizmat qiladi. Retrospektiv syujetning o'ziga xos ko'rinishi qahramon va personajlar xayoloti fonida namoyon bo'ladi. Ushbu holat hayot va o'lim haqidagi falsafada ham ko'zga tashlanib, ruhning abadiyligi, o'lim oxirgi manzil emasligi haqidagi pafosning asar mag'ziga singishi uchun xizmat qiladi[3, 69].

Yozuvchi qahramonlar ruhiy dunyosiga she'riy parchalar orqali ham kirib boradi. "Tepalikdagi xaroba"da Lutfiyning sevgisi tarixi tasvirida qahramonlar nozik tuyg'ulari ifodasiga she'riy parchalar mos tushgan. Ma'lumki, Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanida poyezdlarning mag'ribdan mashriqqa, mashriqdan mag'ribga to'xtovsiz o'tib turishi tasviri butun voqealar davomida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi. Ushbu takror olamning tinimsiz harakati, hayotning davomliliigi haqidagi falsafiy fikr ifodasiga xizmat qilgan[2, 160]. O.Muxtorning yuqoridagi romanida ham "Uyquga o'xshar – o'lim; O'lim o'xshar - uyquga" satrlari bir necha bor takrorlanadi. Ammo Ch.Aytmatov asaridan farqli ravishda, ushbu takrorning vazifasi bo'rtib ko'rinmaydi. Unga chuqurroq falsafiy mazmun yuklansa, yaxshi bo'lar edi. Umuman aytganda, O.Muxtor romanlari har doim adabiy jamoatchilikda qizg'in munosabat uyg'otadi. Ayrim romanlarining shakli, ulardagi ba'zi bir timsollarning to'la ochilmagani, kompozitsiyasidagi saktaliklar matbuotdagi tanqidiy chiqishlarda to'g'ri ta'kidlangan. Bunday munosabatlar ham adibning ijodiy izlanishida asqotishi tabiiy.

#### XULOSA

Xullas, qadimgi Sharq falsafasidagi insonning murakkab xilqati talqini, o'zbek xalq ertaklari hamda dostonlariga xos voqelikning yaxshilik bilan yakunlanishi, mumtoz adabiyotimiz hikoyatlaridagi ibrat, tabiiyki, O.Muxtor romanlarining yaratilishiga turtki bergan. Darhaqiqat, yozuvchining bir suhbatda: "Biz yuksak mezonlardagi tafakkuri bilan fikr yuritishga majburmiz. Albatta, o'zimizning zaminga oyog'imizni mustahkam qo'ygan holda", deya ta'kidlashi bejiz emas.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Omon Muxtor. To'rt tomon qibla. – Toshkent: "Sharq" nashriyot–matbaa konserni bosh tahririyati, 2000.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom. – Toshkent: Fan, 1979.
3. Sabirdinov A. Ijodning sehri olami. – Farg'ona, 2019.